

Qurilish ishlari



RAQAMLAR:


- Qurilish-montaj ishlari hajmi – 193,5 mlrd. so‘m
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi – 17,2 foiz
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar – 62,6 foiz
- Qurilishda norasmiy sektoring ulushi – 20,2 foiz

Joriy yilning yanvar-fevral oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 193,5 mlrd. so‘mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,5 foizni tashkil etdi va 2,5 foiz punktga oshdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 33,2 mlrd. so‘mni yoki 172,6 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 72,6 foiz punktga oshdi.




Qurilish ishlari, mlrd. so‘m




Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 189,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 98,1 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,9 foiz punktga oshdi.

2018 yil yanvar-fevral oylari uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari




Jami qurilish pudrat ishlari tarkibidagi "Bino va inshootlar qurilishi" faoliyat turi bo'yicha 120,5 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi, va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 foiz punktga kamaydi. Shuningdek, "Fuqarolik ob'ektlari qurilishi" faoliyat turi bo'yicha 17,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, yoki o'tgan davrga nisbatan 14,4 foizga punktiga oshdi, "Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari" faoliyat turi bo'yicha 55,3 mlrd. so'mga bajarilib, yoki o'tgan davrga nisbatan 13,6 foiz punktga ko'paygan.

Qurilish ishlari tarkibi

Yangi
qurilish,rekonstru
ktsiya,
kengaytirish
texnik qayta
qurollantirish
130,1 mld. so‘m


Kapital , joriy
ta‘mirlash va
boshqa pudrat
ishlari 63,4 mld.
so‘m



Jami qurilish ishlari hajmida yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish va texnik jixotdan qayta qurollantirish ishlari hajmi 130,1 mld. so‘mni tashkil etdi. Kapital , joriy ta‘mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 63,4 mld. so‘mni tashkil etdi.

O‘tgan yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish ishlari 3,2 foiz punktga kamaydi. Kapital, joriy ta‘mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 16,8 foiz punktga oshdi.

2018 yil yanvar-fevral oylari uchun qurilish ishlari



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi Investitsiyalar va qurilish

statistikasi bo‘limi

Nashr uchun mas’ul: Z.Seytimbetova

(0361) 222-75-91